QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 2-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

O‘TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA GEMINATSIYA HODISASINING IFODASI

https://doi.org/10.70728/b.series.v08.i02.045

Qo‘qon davlat universiteti
O’zbek tili va adabiyoti kafedrasi
assistant o’qituvchisi (PhD) ***M.Xrojiddinova***
O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim
yo‘nalishi 3-bosqich talabasi
Shaxribonu Musallamova Abduaxat qizi

Annotatsiya Mazkur maqolada mashhur o‘zbek yozuvchisi O‘tkir Hoshimov asarlarida uchraydigan geminatsiya hodisasi tahlil qilinadi. Geminatsiyaning fonetik, morfologik va grafemik ko‘rinishlari muallifning “Dunyoning ishlari” hamda “Ikki eshik orasi” asarlari misolida o‘rganiladi. Shuningdek, geminatsiyaning yozuvchi uslubini boyitishdagi, qahramon nutqini tabiiylashtirishdagi va badiiy ta’sirchanlikni oshirishdagi o‘rni yoritilgan.

Kalit so‘zlar: geminatsiya, morfologik geminatsiya, fonetik hodisa, badiiy nutq, xalqona til, ifoda vositasi, grafemik cho‘zilish.

THE EXPRESSION OF THE PHENOMENON OF GEMINATION IN THE WORKS OF O‘TKIR HOSHIMOV

Abstract This article analyzes the phenomenon of gemination found in the works of the well-known Uzbek writer O‘tkir Hoshimov. The phonetic, morphological, and graphemic manifestations of gemination are examined based on the writer’s works “Dunyoning ishlari” and “Ikki eshik orasi”. In addition, the role of gemination in enriching the author’s style, making the characters’ speech more natural, and enhancing artistic expressiveness is highlighted.

Keywords: gemination, morphological gemination, phonetic phenomenon, artistic speech, folk language, means of expression, graphemic lengthening.

ВЫРАЖЕНИЕ ЯВЛЕНИЯ ГЕМИНАЦИИ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ УТКИРА ХОШИМОВА

Аннотация :В данной статье анализируется явление геминации, встречающееся в произведениях известного узбекского писателя Уткира Хошимова. Фонетические, морфологические и графемные проявления геминации рассматриваются на примере произведений автора «Дунёнинг ишлари» и «Икки эшик ораси». Также освещается роль

геминации в обогащении авторского стиля, в придании естественности речи персонажей и в повышении художественной выразительности.

Ключевые слова: геминация, морфологическая геминация, фонетическое явление, художественная речь, народный язык, средство выразительности, графемное удлинение.

Kirish

O'tkir Hoshimov Hayoti va Ijodi yozuvchi adib muharrir ijodkor dramaturg 05 Aug 1941, Toshkent shahri da tavallud topgan 24 May 2013, Toshkent shahri da vafot etgan 29920 marta ko'rildi O'tkir Hoshimov asarlari: Barcha asarlari Hikoyalari Realistik hikoyalari Voqeiy hikoyalari Romanlari O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimov Toshkentning Do‘mbirobod dahasida 1941 yilning 5 avgustida tavallud topgan bo‘lib, bolaligi urush qiyinchiliklari, muhtojliklari davrida kechgan. Shu tufayli u o‘rta maktabni a’lo baholar bilan bitirgan bo‘lsa ham oilaviy sharoiti yuzasidan ishlab turib o‘qishga majbur bo‘lgan. Toshkent Davlat universiteti jurnalistika fakultetining sirtqi bo‘limida o‘qish bilan «Temiryo‘lchi», «Toshkent haqiqati», «Qizil O‘zbekiston» kabi gazetalarda turli yumushlarni bajargan. 1966—1982 yillarda «Toshkent oqshomi» gazetasida bo‘lim mudiri, 1982—1985 yillarda G‘. G‘ulom nomidagi nashriyotda bosh muharrir o‘rinbosari, 1985 yildan boshlab esa «Sharq yulduzi» jurnalining bosh muharriri bo‘lib ishlab keladi. U O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputati hamda Matbuot va axborot qo‘mitasining raisi bo‘lib ham ishlagan. O‘tkir Hoshimov ijodi publitsistikadan boshlangan bo‘lib, birinchi kitobi 1962 yilda «Po‘lat chavandoz» nomi bilan bosilib chiqqan. Uning ilk hikoyasi esa 1963 yili «To‘rt maktub» nomi bilan chop etilgan. Keyinchalik mazkur hikoya asosida «Cho‘l havosi» (1963) qissasi yaratilgan. Mazkur qissa haqida ustoz Abdulla Qahhordan olingan maktub, yosh adib ilhomiga ilhom qo‘shdi, dalda berdi. Shundan so‘ng uning «Odamlar nima derkin», «Shamol esaveradi» qissalari maydonga keldi. Ayniqsa, adibning «Bahor qaytmaydi» (1970), «Qalbingga quloq sol» (1973) kabi qissalari yozuvchiga shuhrat keltirdi. 1976 yilda mazkur asarlar muallifi Respublika Yoshlar mukofotiga sazovor bo‘ldi. Adib «Nur borki, soya bor» (1976) romanida jamiyat ijtimoiy hayotidagi illatlarni, turg‘unlikning mohiyatini ochish asnosida davrning muhim ma’naviy-axloqiy masalalarini ko‘tarib chiqdi. Shundan so‘ng u yana bir go‘zal asarni — O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Oybek mukofoti bilan taqdirlangan «Dunyoning ishlari» (1982) qissasini yaratib, ma’naviyat haqidagi bahsni davom ettirdi. O‘tkir Hoshimov ijodida «Ikki eshik orasi» romani alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. Unda adib qariyb qirq yillik davrni o‘z ichiga olgan va bir qator chigal hamda murakkab taqdirlar misolida o‘z xalqining tarixiy qismatini mahorat bilan umumlashtirib berdi. Shu tufayli ham O‘. Hoshimov romani 1986 yilda Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofotiga sazovor bo‘ldi. O‘tkir Hoshimov hikoya janrida ham unumli ijod qilgan. Xususan, uning «Muhabbat», «Dehqonning bir kuni», «Urushning so‘nggi qurboni», «O‘zbek ishi» kabi asarlari o‘zbek hikoyachiligi rivojiga salmoqli hissa bo‘lib qo‘shildi. Uning «Qalbning oppoq daftari», «Muqaddas qasamni

buzganlar», «Avlodlarga nima deymiz», «Mantiq qani?», «Davlat siri» kabi maqolalari esa so‘nggi yillar o‘zbek publitsistikasining yutuqlaridan biri bo‘ldi. O‘tkir Hoshimov mohir hikoyanavis, qissanavis, romannavis va publitsistgina emas, dramaturg sifatida ham zamonaviy adabiyot rivojiga ta’sir ko‘rsatdi. Uning «Hazon bo‘lgan bahor», «To‘ylar muborak», «Vijdon dorisi», «Inson sadoqati», «Qatag‘on» drama va komediyalari Respublika teatrlari sahnalaridan munosib o‘rin egallagan. «Daftar hoshiyasidagi bitiklar» (2001) kitobi ijtimoiy-ma’naviy hayotda muayyan iz qqoldirgan.

Til hodisalari orasida geminatsiya (lotincha geminatio — “ikki barobar bo‘lish”) o‘zbek tili fonetik tizimida muhim o‘rin tutadi. U bir xil undosh tovushning ketma-ket kelishi yoki talaffuzda cho‘zilib aytilishidan iborat bo‘lib, so‘z yasovchi affikslar, so‘z birikmalari yoki ifodaviy maqsadlar natijasida yuzaga chiqadi. Adabiy asarda geminatsiya faqat tovush hodisasi emas, balki badiiy-estetik vosita sifatida ham namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, O‘tkir Hoshimovning nasriy asarlarida bu hodisa xalq tili ohangdorligi va nutq tabiiyligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi

Fonetik geminatsiya — tabiiy nutq ohangini yaratish vositasi

Nutqiy jarayonda talaffuz, ohang, ovoz bo‘yog‘i asosida hayajon paydo bo‘ladi va xuddi ana shu holatlar baho ifodalovchi vosita sifatida xizmat qiluvchi omil sanaladi.Og‘zaki nutqda fonetik usul orqali baho munosabatini qo‘llash juda oson, sababi ohang, ovoz toni salbiy yoki ijobiy baho munosabatini yaqqol aks ettiradi. Fonetik usul orqali baho munosabatini yuzaga chiqarishda tovushlarning cho‘zib aytilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

– Uyingda amol bo-or! – dedi lo‘li cho‘zib. –G‘animing bbo-or.

Bor so‘zi mavjudlik ma’nosida ijobiy munosabat uchun ishlatiladi, ammo yuqoridagi misolda o unlisining cho‘zib talaffuz qilinishi bir paytning o‘zida ham salbiylik, ham qo‘rquv ma’nosini yuzaga chiqarmoqda.

– Vaalaykum… Keling-keling, yaxshimisiz, Gulchehra? – dedi.

– Rahma-a-at! Olmoniyadan to‘g‘ri samolyotda Urganchga uchib keldingizmi? – so‘radi Gulchehra.

Rahmat minnatdorchilik ma’nosini bildirib, ijobiy bahoni yuzaga keltiradi. Keltirilgan misolda esa a tovushini cho‘ziq talaffuz qilish orqali sen ko‘rmasang ham yaxshiman, indamasdan kelib olsangiz ham bilib olaman kabi ma’nolar yotadi.Kattalarning yosh bolalarga o‘xshab ovoz chiqarishi yoki ovozning o‘zga jins kishilari ovoziga o‘xshatilishi, so‘zlarning o‘ta sekin yoki baland talaffuz etilishi ham baho (xoh ijobiy, xoh salbiy) munosabatini ifodalaydi

O‘tkir Hoshimov asarlarida fonetik geminatsiya ko‘pincha so‘zlashuv tili unsurlari asosida ifodalanadi. U yozuvchi qahramonlarining jonli nutqini tabiiy ko‘rsatish uchun tovush cho‘zilishini yozuvda ham ifodalaydi.

Misollar:

“Voyyy, bolam, shunday qilma dedim-ku!” (Dunyoning ishlari)

“Heee, bunaqa gapni ham aytisharmidi?”

“Qizzz, hali hayotni bilmayapsan-ku!”

Bu holatlarda so‘zlar yozuvda cho‘zilib yozilgan bo‘lib, hayrat, mehr, jahldorlik yoki achinish hissini kuchaytiradi.

Morfologik geminatsiya — qo‘shimcha va ildiz tutashuvi natijasi

So‘z yasovchi va shakl yasovchi affikslar tutashganda bir xil undosh tovushlar yonmayon keladi. Bu morfologik geminatsiya deyiladi. Hoshimov bunday holatlarni tabiiy til jarayonida saqlaydi.

Misollar:

“U yerda bir ishchi bola tong saharda turibdi.”

“Qizillik degani ham shu joyda ko‘rindi.”

“Qorong‘ulik ichida harakat sezdilar.”

Ko‘plik qo‘shimchasi (-lar) orqali kinoya va salbiy baho

«Bolam o‘qishga kirmabdi. «Imtihonlar juda qiyin bo‘lib qopti», deydi…»

(“Daftar hoshiyasidagi bitiklar”)

Bu yerda imtihonlar qiyin bo‘lib qopti iborasidagi ko‘plik shakli oddiy xabar emas — shikoyatomuz, istehzoli ohang yaratadi.

Nutq sub’ekti imtihon qiyinligini emas, bahona qilyotgan bolaning holatini kinoya bilan baholaydi.

Salbiy baho (kinoya) morfologik shakl (ko‘plik) orqali yuzaga kelgan.Ko‘plikning o‘rinsiz qo‘llanishi orqali past baho

«Qo‘shnilar aytishadi: bolalarimiz endi kattalar bo‘lib qolishibdi…»

(“Ikki eshik orasi”)

Kattalar bo‘lib qolishibdi shaklidagi ko‘plik — ayniqsa -ibdi bilan — istehzo ohangini kuchaytiradi.

Onaning farzandlariga qo‘ygan bahosi ko‘zga tashlanadi: “hali hech kim bo‘lmadi, lekin o‘zlarini kattaga qo‘yishyapti” ma’nosi paydo bo‘ladi.

Salbiy baho (masxara/kinoya).Egalik qo‘shimchasi orqali hurmat «Onangizning gapini ikki qilmaydi bu bola», — derdi qo‘shnilar.

(“Urushning so‘nggi qurboni”)

Onangizning shakli — hurmat bildiruvchi egalik kategoriyasi.

Bu qo‘shimcha personajga nisbatan bo‘lgan e’tiborni, yuksak bahoni ifodalaydi.

Ijobiy baho (hurmat) morfologik vosita orqali ifodalangan.Oddiy shakldan qo‘pol shaklga o‘tish orqali salbiy baho

«O‘g‘lingni chaqir!» — deydi jahl bilan.

«O‘g‘lingizni aytasizmi?» — deydi ayol ehtiyot bilan.

(“Bahor qaytmaydi”)

Bir tomonda: o‘g‘lingni — qo‘pol, buyruq mazmunida, hurmatsiz.

Ikkinchi tomonda: o‘g‘lingizni — odobli, masofa saqlangan.

Bu ikki morfologik shakl (shaxs-son qo‘shimchalari) orqali salbiy va ijobiy baho keskin kontrast hosil qiladi.

So‘z yasovchi qo‘shimcha bilan (-chi) salbiy baho

«O‘quvchi emasmisiz, odamchiroq gapiring.»
(“Dunyoning ishlari”)

Odamchiroq birikmasida -chi va -roq orttirma shakllari istehzo ma’nosini kuchaytiradi: “odam bo‘lib gapir”, degan salbiy baho berilgan.

Morfologik vositalar salbiy baho + tanbeh vazifasini bajaradi.

Takroriy ko‘plik orqali umumlashtirilgan ijobiy baho

«O‘sha kezlari odamlar boshqacha edilar… Iymonlar bor edi, mehrlar bor edi.»
(“Dunyoning ishlari”)

Iymonlar, mehrlar — aslida ko‘plikka ehtiyoj yo‘q, ammo ko‘plikda kelishi:

hodisalarni ko‘paytirish emas, balki umumlashtirilgan ijobiy baho yaratish uchun qo‘llangan (yuksak axloqiy fazilatlarni ko‘p, barakali deb tasvirlash).

Ijobiy baho (maqtov) morfologik yo‘l bilan yuzaga keladi.

Grafemik geminatsiya — his-tuyg‘u ifodasining kuchaytirilgan shakli

Grafemik geminatsiyada yozuvchi tovush cho‘zilishini yozuvda harfni takrorlab ko‘rsatadi. Bu usul o‘quvchi ongida tovushni “eshitish” effektini hosil qiladi.

Misollar:

“Bolammm, yurakni ezma endi…” (Ikki eshik orasi)
“Hoyyy, qo‘shnilar, bu bola yana nima qilib qo‘ydi?”
“Voyyy, shunaqa odamdan ham bo‘larkanmi?”

1. Onam ma’yus jilmaydi: – Uyqu qatta, bolam?! O‘-o‘-tiribman.

2. Voy, Posha-a! Nima qilib qo‘ydingiz? Tamom bo‘libsiz-ku!

3. – Ha-a! Bunday demaysizmi? – sartarosh onamning maqsadini tushundi. 4.Hoo! – Ammam o‘rnidan turib ketdi. – Beli og‘rimaganni non yeyishini ko‘r. 5. – Xo‘ja-a-a! – dedim baqirib. Oqshom zulmati boshlandi, jiydazor orasida “aaa” degan sado keladi. 6. – Uyingda amal bo-o-rlar, – dedi lo‘li cho‘chib. – G‘animing bo-o-r! 7. – Oyi, cho‘pchak aytib bering. Ayta qol-i-i-i-ng! (“Dunyoning ishlari”)

Leksik geminatsiya — so‘z takrori orqali ta’sirchanlik

Leksik sathda baho munosabatining ifodalanishi baho ifodalashning eng sermahsul usuli sanaladi. Vinogradov ta’siri bilan aaytganda, so‘z nafaqat grammatik, leksik ma’nonigina bildiradi, shu bilan birga, obyektga subyektning bahosini ham namoyon etadi. Bunda munosabat qiyoslash orqali yuzaga keladi, ya’ni neytral baho oqali salbiy yoki ijobiy munosabat

aniqlanadi: bashara–YUZ–chiroy. Ko‘rinib turibdiki, ijobiy yoki salbiy baho neytral (yuz) leksika orqali aniqlanadi. Ba’zi hollarda bahoni uslubiy jihatdan kuchaytirish uchun ijobiy baho ifodalovchi so‘z salbiy baho ifodalash uchun yoki, aksincha, salbiy baho ifodalovchi so‘z ijobiy baho ifodalash uchun ishlatilishi mumkin: …butun mahalla-ko‘y Razzoq so‘fining baxtini olqishlab, chapak chalardi! (Cho‘lpon) Parchadagi olqishlab leksemasi matndan ajratilib olinsa, ijobiy ma’noda qo‘llanadi. Ammo bu gapda kinoya ma’nosida ifodalangan. Mazkur matn bilan tanish bo‘lgan mahallako‘yning olqishlashi salbiy baho ifodalaydi: olqishlayotgan mahallako‘yning bir qiz taqdiriga befarqligi asosida muallifning bu holga salbiy bahosi anglashiladi. Leksik sath birliklari nutqiy jarayonning asosiy vositasi sanalganligi uning qo‘llanilishi orqali nutqda istalgan ma’no bo‘yog‘ini hosil qilishini isbotlaydi. Abdulhamid Nurmonovning ta’kidlashicha, an’anaviy lingvistik tahlilda 5 fonema, 2 bo‘g‘in, 1 morfema, 1 so‘zdan iborat bo‘lgan Ahmad so‘zini jonli nutqda turlicha talaffuz qilish bilan 16 xil mazmun ifodalash mumkin (savol, javob, hayrat, mensimaslik, kinoya kabi). Ba’zan yozuvchi hissiy ta’sirni oshirish uchun so‘zni takrorlash orqali geminatsiyani yaratadi. Bu leksik darajadagi hodisa bo‘lib, urg‘u berish, shoshilish, jahldorlik kabi hissiy holatlarni ifodalaydi.

Misollar:

“Yur, yur, tezroq! Bolalar ketyapti!” (Dunyoning ishlari)

“Bor, bor, aytganimni qil!”

“Qo‘y, qo‘y, shunaqa bo‘lmasin!”

Uslubiy tahlil va semantik yuk

O‘tkir Hoshimov geminatsiyani shunchaki fonetik hodisa sifatida emas, balki badiiy til vositasi sifatida qo‘llaydi. Cho‘zilishlar, takrorlar, qo‘sh undoshlar orqali u xalq nutqining tabiiyligini saqlaydi, qahramon xarakterini yanada jonli ko‘rsatadi, hissiyot va ohangdorlikni oshiradi.

Masalan, “Dunyoning ishlari”dagi ona obrazida shunday jumla uchraydi:

“Bolam, har safar seni ko‘rsam, yuragim yumshshshab ketadi.” Bu shakl fonetik cho‘zilishni ifodalaydi va onaning mehrini ko‘rsatadi.

Xulosa

O‘tkir Hoshimov asarlarida geminatsiya hodisasi fonetik, morfologik, grafemik va leksik darajalarda uchraydi. U yozuvchi uslubida qahramon nutqining tabiiyligini ta’minlaydi, so‘z ohangini kuchaytiradi, matnga hissiylik va xalqona ruh beradi. Demak, Hoshimov asarlarida geminatsiya nafaqat fonetik hodisa, balki badiiy-estetik uslub yaratish omili sifatida alohida ilmiy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qosimova, M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2019.
2. Rasulov, R. Badiiy til va uslub. – Toshkent: O‘zbekiston, 2015.
3. Karimov Suyun. O‘zbek tilining fonetik stilistikasi. – Samarqand, 2016.

4. Doniyorov X., Yo‘ldoshev B. Adabiy til va badiiy uslub. – Toshkent: Fan, 1988.

5. Yo‘ldoshev M., Isoqov M., Haydarov Sh. Badiiy matnning lisoniy tahlili. –T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.

6. Mamajonov A., Yo‘ldosheva Z. Uslubshunoslik va badiiy tasvir vositalari. – Farg‘ona, 2020. 1. Yo‘ldoshev M. , Isoqov M. , Haydarov Sh. Badiiy matnning lisoniy tahlili. – Toshkent: A. Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.